According to the literature, the resistance of the female sex has been proven in various species of animals, both natural and laboratory, for example, in the pine vole - to endrin, in the common vole - to rotindan, in rabbits - to mitalnitrophos. The genetic resistance of females of natural animal species to adverse environmental factors seems to reduce the likelihood of the emergence of new traits through females and ensures the stability of the species.

Genetic resistance of female sex has also been observed in the study of sex ratios in humans. The shift in favour of girls at birth and later in life is associated with their greater vitality compared to boys. This is due to the presence of diploidy on X chromosomes in girls. Recessive mutations that weaken viability occur when a single chromosome is present in boys. In girls, these mutations, as a rule, are in a heterozygous state and have not shown developmental shifts. Boys, as a hemizygous sex, exhibit new mutations obtained from heterozygous mothers, which leads to a weakening of their viability in ordinary, and even more so in extreme conditions.

It is known that about half of children with trisomy syndrome on the 18th pair of chromosomes live up to 2 months, 1/3 - up to 3 months. And only 1-2% - up to an older age. Girls with trisomy on the 18th pair of chromosomes can live up to 10.5 years. It should be noted that girls are more common among patients with trisomy (3:1), which reflects the possible increased intrauterine mortality of boys.

As you know, among Muslims, a daughter gets married and leaves her father's house. In the groom's house, new people and unusual conditions appear. Girls have been obeying this since the dawn of time. Our ancestors, even before the advent of genetics, seem to have noticed the resilience of the female sex.

LITERATURE

1. Khalikov P.Kh. Method of catching wild mice. Proposal No. 990. – 1989, 2018.

2. Guidelines for the Hygienic Evaluation of New Pesticides. – Kiev, 1988. P. 55-89.

3. Genome size evolution in vertebrates. Trends and constants / Olmo E, Capriglone T., Odiieza G. et.al. // Comp. Biochem. and Physiol. – 1989. – V. 92, N 3. – P. 447-453.

4. Expression of a candidate sex determining gene during mouse testis differentiation / Koopman Fater, Munsterberg Andrea, Cahd Blanche et.al. // Nature. – 1990. – V. 348, N 6300. – P. 450-452.

THE THEORETICAL BASIS OF LABORATORY EXERCISES IN LEARNING PHYSICS

Karshiboev Shavkat
Alieva Makhsuda
Rakhmonov Umed
Jumaboyeva Sarvinoz
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute.Samarkand city,
Spitamen shokh street No 166.
shavkat.qarshiboyev.89@bk.ru

ABSTRACT

This article examines the foundations and methods of physics laboratory training at higher education institutions. Laboratory training is an integral part of the educational process, as it provides students with their first practical exposure to scientific activities. The study investigates how modern laboratory work and experiments impact the development of students' scientific competencies and their worldviews. It also provides a detailed analysis of the classification, advantages, goals, and tasks of laboratory training. Through laboratory work, students gain an understanding of the importance of experiments in life.

Keywords: laboratory, experiment, method, quality of education, frontal laboratory, competence, physical practicum.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются основы и методы лабораторной подготовки по физике в высших учебных заведениях. Лабораторная подготовка является неотъемлемой частью учебного процесса, поскольку дает студентам первое практическое знакомство с научной деятельностью. Исследование исследует, как современные лабораторные работы и эксперименты влияют на развитие научных компетенций студентов и их мировоззрения. Также дан подробный анализ классификации, преимуществ, целей и задач лабораторного обучения. Благодаря лабораторным работам студенты получают понимание важности экспериментов в жизни.

Ключевые слова: лаборатория, эксперимент, метод, качество образования, фронтальная лаборатория, компетентность, физический практикум.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada biz oliy o'quv yurtlarida hozirgi kunda fizika fanidan laborotoriya mashg'ulotlarining nazariy asoslari va metodologiyasi tahlil qilingan. Laboratoriya mashg'uloti o'quv jarayonining asosiy elementlaridan biridir, tajribalarni bajarish davomida talabalar birinchi marta ilmiy sohadagi amaliy faoliyat bilan tanishishadilar. Zamonaviy laboratoriya ishlarining ilmiy elementlari va eksperementlarning talabalarda ilmiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda dunyo qarashini rivojlantirishga bo'lgan ta'siri tadqiq etilgan. Shuningdek, laborotoriya mashg'ulotlarining tasnifi, afzalliklari va maqsadi, vazifalari chuqur tahlil qilingan. Laboratoriya ishlarini bajarish orqali talabalarda hayotda tajribalarning roli haqida tasavvur shakllanadi.

Kalit sa'zlar*: laboratoriya, tajriba, metod, ta'lim sifati, frontal laboratoriya, kompetensiya, fizik hodisa, fizik praktikum.*

INTRODUCTION: Teaching physics in higher educational institutions requires, first of all, acquainting students with the achievements of modern physics, to show the place and role of this science in scientific and technical development, and to form a natural scientific outlook in future specialists. Physics is a science that studies natural phenomena.

Many laws of physics were discovered due to observation of natural phenomena or specially designed experiments. Experiments confirm or disprove physical theories. Also, the faster a person learns to conduct physical experiments, the faster he becomes an experienced physical researcher [1.57]. Even though students are shown physical experiments during physics lessons in higher educational institutions, it is impossible to imagine teaching physics only in a theoretical form. It is necessary to implement such work into the educational process, in which the students themselves perform work that includes assembling the device, measuring physical quantities, and performing experiments. Laboratory classes instill in students a natural interest in knowledge related to understanding the world around them through their own experiences and feelings. During the performance of laboratory work, students develop an idea about the role of experiments in life [2.3].

When performing experiments, students develop experimental skills, including intellectual and practical skills. Intellectual abilities include the following skills:

1. Assembling the experimental device. 2. Follow up. 3. Experience 4. Measurement

During experiments as part of laboratory work, students learn to work with laboratory devices and instruments, understand the laws of physical phenomena, and get acquainted with research methods. Laboratory work is one of the main elements of the educational process, during experiments, students get acquainted with practical

activities in the scientific field for the first time. Laboratory classes, as well as other practical training sessions, are students' well-grounded theoretical work in lectures and seminars and the practical application of the knowledge gained.

These trainings connect elements of theoretical research and practical work. When students conduct laboratory work, they better accept the educational material on any subject, because many formulas and definitions that seem incomprehensible at first glance have a certain meaning, theory and the relationship between practice is shown [3.4.5].

Advantages and functions of laboratory exercises

Laboratory classes are a form of individual employment of students in generalization classes, in such classes they deepen and strengthen theoretical knowledge by conducting experiments. the following goals can be achieved when conducting a laboratory seminar:

1. Determine the purpose of the experiment, 2. Proposing hypotheses, 3. Selection of tools, 4. Planning experiments, 5. Calculation of errors, 6. Analysis of results, 7. Preparation of a report on completed works

- Practical application of new knowledge acquired in classes through discovery in laboratory conditions helps to deepen the rules of theoretical material;

- Students acquire the skills of conducting experiments, and learn to correctly analyze the received data;

- To obtain basic knowledge for the implementation and modeling of work related to scientific research activities;

It is very important to choose the right laboratory work when creating a program. Therefore, when creating a program for a physics course in pedagogic universities, it is necessary to rely on the part of the laboratory training that is better implemented using visual methods. For such lessons, the teacher correctly chooses the material on which the educational experiment can be conducted, and the only purpose of the experiments here can be the study of phenomena. In addition, in training students, we must not forget to reveal modern scientific research methods on the subject and find their application. When choosing questions for educational programs that are planned to be implemented with the help of practical work, it is necessary to clearly understand what role is assigned to them within the studied topic, and whether it is possible to learn knowledge without using it in experiments [4,47].

When the teacher plans to conduct any laboratory work, he takes into account not only his academic tasks but also the educational goals of other teachers, as well as the activities of students in general. The main thing in the competent implementation of experimental training is mutual understanding between teachers and accurate

coordination of educational programs for conducting useful laboratory exercises. Based on this, for students to be able to understand laboratory training as a single whole system that reflects this science, practical laboratory training should be inextricably linked with the courses of various academic subjects. It should be taken into account that teachers are not always able to use it in reality. From this, we conclude that the main requirement of the laboratory lesson is the correct selection of the content of the educational material and the methods of organizing the lessons so that the cognitive activity of students can develop in solving scientific and practical problems.

The result of the laboratory activity depends not only on the methodical, theoretical, and practical training of the teacher but also on many combinations, such as his organizational work in the process of preparing for the practicum. The condition of the laboratory base itself and its methodological support, the level of students' preparation, and positive activity in the lesson play an important role in the success of practical work.

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY: A.V. Lunacharsky showed the special importance of educational methods in his work. He wrote: "Whether the child is bored, whether teaching slides over the surface of the child's brain almost without a trace, or, on the contrary, that teaching is part of the child's play, the child Whether it is accepted with joy as a part of his life, whether it merges with the child's psyche and becomes his flesh and blood depends on the teaching method [2]. Laboratory work is a teaching method in which students can understand physical phenomena. If we consider laboratory work in the framework of didactics, then it can be both a method and a form of teaching physics. If we consider laboratory work as a method of teaching, then we can say that it is a method of strengthening the theoretical material on the subject, in which students perform tasks according to a strictly defined plan and under the guidance of the teacher. In this case, laboratory work includes research. Babansky Yu.K. considers laboratory work as a teaching method, in which the main task is to create control and self-control in the learning process [2.3]. In this, he considers organizational-cognitive, motivational, motivational, and regulatory activities as additional and no less important functions. Laboratory work was considered by V.A. Slastenin as a method of controlling the effectiveness of the pedagogical process. If we consider laboratory work as a form of education, then we can say that it is aimed at acquiring practical skills and qualifications with the help of equipment. Acquisition of new knowledge and their strengthening, formation of practical skills and qualifications were the goals set by T.I. Shamanova in performing laboratory work. The task of laboratory work can be classified as follows.

The task of laboratory work: Application of knowledge in practice, Formation of necessary practical knowledge and skills in life and work, Assist in guiding students to the profession. Polishing personal qualities, Development of students' interest in physics and their cognitive activity The following functions of laboratory work are distinguished:

1) teaching function - is manifested in accelerating the process of mastering the material; 2) the development function is aimed at developing imagination, memory, attention, creative and spatial thinking; 3) the educational function affects various character traits; 4) the motivational-encouraging function creates conditions for engaging students in cognitive activities; 5) the reflection function helps the student to be aware of himself in his work compared to others, to control and analyze his actions, to find and correct mistakes, to evaluate the results of his actions, and to develop the ability to make corrections to them; 6) the diagnostic function allows the teacher to determine the specific characteristics of the student's personality and the level of mastery of his knowledge and skills.

These skills can be acquired as a result of independent work focused on one goal. A characteristic feature of laboratory training is the partial independence of the students, which gradually becomes almost independent not only in assembling the device and taking measurements but also in preparing for measurements, in the process of performing the work, processing the results, and compiling a report. should become full, active conscious work.

Classification by organizational characteristics is the most common and most common. The latest classification allows us to consider the experience from the point of view of teaching methodology, to correctly determine the place of each of its types in the system of physics lessons, and to choose the educational equipment wisely.

Frontal laboratory work - in the process of conducting it, students independently measure physical quantities, as well as observe and reproduce physical phenomena using the necessary laboratory equipment. Students are taught practical skills and abilities, the importance of which is their gradual acquisition. The simplest skills and competencies are formed when performing frontal laboratory work, as simple equipment is used. In this regard, frontal laboratory work partially solves the problem of developing students' skills in working with modern laboratory equipment. Frontal laboratory work is carried out during the study of the relevant material. Depending on what characteristics are used in the classification of frontal laboratory work, the following can be distinguished: quality and quantity work; short-term and whole-class work; and so-called creative works. However, from the point of view of the theory of

teaching physics, the most profound and effective classification is according to the didactic goals of the work. On this basis, the following professions are distinguished:

1. Observation and study of physical phenomena; 2. Familiarity with measuring instruments and measurement of physical quantities; 3. Getting to know the structure and principle of operation of physical devices and technical devices; 4. Determination or verification of quantitative laws; 5. Determination of physical constants, characteristics of substances, and processes.

As mentioned above, tasks for practical laboratory work differ significantly in complexity from frontal work. In this regard, the time to perform them increases to two training sessions, but there are also cases of performing this type of work in one lesson. To perform practical work, more sophisticated and modern equipment is required because its tasks cover the entire studied area. covers lim or course.

The last type of laboratory work considered during the research is the home experiment. It is laboratory work done by students at home. Students begin to perform tasks using household items and self-made devices according to the teacher's instructions.

ANALYSIS AND RESULTS: The purpose of laboratory work is, first of all, to teach, educate, and develop personal competencies that allow students to independently search for information, methods, and methods of completing assigned tasks, evaluate their quality, and apply the acquired knowledge in practical activities.

When planning laboratory work, it should be taken into account that, along with the main didactic goal, students will develop practical skills and competencies in working with laboratory equipment, as well as research skills. Laboratory sessions must be conducted under the supervision of the teacher and in compliance with all safety rules. Before doing the work, the teacher gives detailed safety instructions, each student signs a special journal. The teacher is responsible for ensuring that students follow the rules[5.6].

While preparing for the lesson, the teacher should organize the laboratory work in an ideal way and take all measures to form students' practical skills in working with laboratory equipment. Students will be provided with all the necessary materials in the previous lesson to conduct the laboratory lesson. The materials must be presented in writing and include the following: the name of the work, the purpose, tools and materials, visual aids, the work assignment and procedure, control questions, rules for working with laboratory equipment, and technical and fire security measures. Before starting laboratory work, students must obtain permission to work after checking the sequence of work and mastering the control questions and safety measures specified in the assignment. Laboratory work must be done individually. There are 2-3 students at

the table, and each of them independently performs the work and reports. For each completed work, the student receives a grade after submitting a report and testing his knowledge.

During laboratory work, students develop the skills to explain the nature of the observed processes and events, process and analyze the results obtained during the study, and form conclusions necessary for further work and training. They develop a creative approach to research work and learn to choose the right equipment and experimental methods [5.6].

The teacher chooses the method of performing laboratory work based on the best option for him. The following factors influence the choice of the work execution method: the suitability of the chosen method to the purpose of the lesson, the level of preparation of the students to learn the studied material at this stage, and the content of the experiment. When choosing a method of work, the teacher follows the requirements of the program, i.e. Student preparation requirements must be met based on the development of each student.

The reproductive method is a method of performing laboratory work, in which students should develop skills in performing work. This method does not ensure students' independence in doing the work, because already known facts are repeated with the direct help of the teacher. When using this method, work begins with repeating the possible methods of measuring the materials used and the physical quantities used. Then the progress of the work is discussed and the students begin to assemble the device. The next step is to carry out the necessary measurements process the results and draw appropriate conclusions [2.7.10].

This method is aimed at repeating existing experiments with the help of a specific algorithm, which makes students lose their independence, but at the same time strengthens their skills and competencies in working with laboratory equipment. The partial search method involves the teacher guiding the practical actions of the students, giving them consistent instructions, and then, with the help of questions, directing them to analyze the results obtained during the study, which were previously unknown to them. helps to form conclusions about existing laws.

This method helps students acquire knowledge independently during laboratory work. It is appropriate to use this method if the students have already mastered the necessary actions to perform the work and can perform them independently. The partial search method is used in works aimed at observing physical phenomena and establishing relationships between physical quantities [7.11.12].

The research method is a method that implies the complete independence of students. To use this method, the teacher must prepare the task correctly. Students

independently determine the progress of the assignment, and then complete the research steps. The research method of performing laboratory work is applied to the most successful students who participate in projects and research activities. The difference between the methods from the previous ones is that before performing laboratory work, students are invited to independently think of methods of indirect measurement of any quantity and to determine the necessary equipment to carry out the research. All proposals are discussed by the student group and the most optimal option for completing the work is determined. All work is done independently by the students, the teacher only controls the actions of the students [6.7.8.9.10].

CONCLUSION: A literature analysis was conducted on the use of problem-based teaching technology in the organization of students' laboratory work in physics classes at higher educational institutions. The main structural features of laboratory work are determined and developed using problem-based learning technology. Carrying out laboratory work helps students to consciously acquire knowledge skills, develop their thinking ability and interest in physics, cultivate labor skills, and increase their sense of observation and professional competence.

REFERENCES

1. M Djo'rayev Fizika o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma. Toshkent 2015 y

2. Белова Е.К. «Лабораторные работы, их роль в учебном процессе и особенности проектирования» [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://zavantag.com/docs/3209/index-86129.html

3. Использование цифровых лабораторий на уроках физики и химии: Учебно-методическое пособие / Авторы: Кунаш М.А., Телебина О.А. – Мурманск: ГАУДПО МО «Институт развития образования». – 2015. – 66 с.

4. Методические рекомендации по составлению «Методических указаний к лабораторным работам и практическим занятиям» [Электронный ресурс]. URL: http://xn---10-vedu.xn--p1ai/doc/metod10.pdf

5. Esirgapovich, Karshiboev Shavkat. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING SOFTWARE IN ORGANIZING VIRTUAL LABORATORY COURSES IN PHYSICS." *International Journal of Pedagogics* 3.11 (2023): 17-26.

6. Каршибоев Ш. Fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish metodikasi //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 8/S. – С. 94-101.

7. Шайкина О.И. Открытые образовательные ресурсы на основе смешанного обучения в Томском политехническом университете // Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2016. Т. 5. № 1 (14). С.134-136.

8. Karshiboyev S. E., Suvanova I. X., qizi Shukrulloyeva F. R. FIZIKA FANINI O'RGANISHDA LABOROTORIYA MASHG 'ULOTLARINING NAZARIY ASOSLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 4. – C. 38-47.

9. Shavkat K. IMPROVING THE METHODOLOGY OF ORGANIZING AND CONDUCTING LABORATORY TRAINING THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES //INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 74-82.

10. Shavka K. et al. Use of Virtual Laboratories in Education //International Journal of Formal Education. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 169-172.

11. Karshiboyev S. KREDIT MODUL TIZIMIDA FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG 'ULOTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH KVANT FIZIKASI BO 'LIMI MISOLIDA //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 19.

12. Shavkat K., Matluba N., Zaxriddin R. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida fizikadan virtual laboratoriya ishlari //O 'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi№ DGU 29267raqamli mualliflik guvohnomasi. – 2023. – T. 15.

O'ZBEKISTONDA TURIZM YO'NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI

Ramatov Murat Qalvayevich
Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti
3-kurs talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatimizning turizm sohasini rivojlantirishning o'zigaxos yo'llari, turistlarni jalb qilish va ularga sifatli xizmat ko'rsatish, yildan-yilga sayyohlar sonini ko'paytirish chora tadbirlarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *turizm, turist, dam olish maskanlari, tarixi shaharlar, rivojlantirish, turizm raqamlarda.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны уникальные пути развития туристической отрасли нашей страны, привлечения туристов и предоставления им качественного обслуживания, реализации мер по ежегодному увеличению количества туристов.

Ключевые слова: *туризм, туристы, курорты, исторические города, развитие, туризм в цифрах.*

ANNOTATION

This article describes the unique ways of developing the tourism sector of our country, attracting tourists and providing them with quality service, implementing measures to increase the number of tourists every year.

Key words: *tourism, tourists, resorts, historical cities, development, tourism in numbers.*

Joriy yilning 22-dekabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati sohasi borasida quyidagi fikrlarni bildirdi: «Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm

sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YuNeSKO ro'yxatiga kiritilgan.

Mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari va ularning imkoniyatlaridan foydalanib, yangidan yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol tarzda jalb etish bilan birga biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini keng miqyosda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.. Bu borada davlatning xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash bilan sohani taraqqiy ettirishda ko'plab imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz zarurdir. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi qadimiy yodgorliklar va tarixiy maskanlarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va takomillashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi keng imkoniyatlarni ham to'liq tarzda ishga solish kerakdir».

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2016 - yil 2-dekabr sanasidagi «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bu sohada keng imkoniyatlarni ochib berib, uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etib, uni izchil rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz yurtimizning 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida turizm haqida so'z yuritar ekan, bunday serdaromad sohaning rivoji e'tibordan chetda qolib kelayotganligi, uning O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotiga qo'shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ'ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to'ldirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilishi zarurligini alohida ta'kidladi.

Yurtboshimiz dunyoning 33 ta davlatida O'zbekiston elchixonalari faoliyat ko'rsatayotgan elchilarga onlayn murojaatida O'zbekistonga xorijiy investitsiya hamda turistlarni jalb qilishni, ayniqsa, har bir elchiga har kuni 10 nafar sayyoh jo'natishga e'tibor berishni ta'kidladi. Ya'ni, turist ham investitsiya degani, degan g'oyani ilgari surdi.

Davlatimiz rahbarining yurtimizda boshqa sohalar qatorida turizmga ham alohida e'tibor qaratishi, bu sohada ko'zga tashlanib kelinayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralarini jadallik bilan amalga oshirilishida dasturulamal bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir. Yurtimiz yirik turizm salohiyatiga ega bo'lgan mamlakatlar qatorida o'z o'rni va ahamiyatiga ega ekan, demak biz mavjud imkoniyatlardan eng yuqori darajada foydalanishimiz kerak.

Yildan-yilga yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar soni koʻpayib borayotganini hisobga olsak, bu juda munosib eʼtirofdir. Endi esa bir nechta raqamlarni misol qilib oʻtsak. Oʻtgan yilning yakunlariga koʻra, Oʻzbekistonga 6,748 million sayyoh tashrif buyurgan boʻlib, bu 2018-yil statistikasidan 125 foizga (5,346 million kishi) koʻpligini koʻrishimiz mumkin. Oʻzbekistonga tashrif buyurgan turistlarning umumiy sonidan 6,260 million kishi MDH mamlakatlaridan, 488,4 ming sayyoh esa olis xorij davlatlaridan kelgan. Shu bilan birga, 2019-yilda turizm xizmatlarining eksporti 1,313 milliard dollarni tashkil etgan, 2018-yilda u 1,041 milliard dollariga teng boʻlgan (oʻsish 126 foiz). Ushbu qiymatning yarmidan ortigʻI MDH mamlakatlaridan kelgan sayyohlar (966,559 mln. AQSH dollari) sarflagan, 346,472 mln. dollar esa boshqa davlatlarning sayohatchilariga toʻgʻri keladi.

Turizm sohasi dunyo iqtisodining keng miqyosda rivojlanayotgan ilgʻor sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti koʻplab davlatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib ulgurgan.

BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti maʼlumotlariga koʻra 2015-yilda dunyo boʻyicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan boʻlsa, 2016-yil yakuni boʻyicha bu koʻrsatkich 1 milliard 235 millionga yaʼni, 3.9 foizga koʻtarilgan. Sayohatchilarga koʻrsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015-yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil etgan. 2016–2017 yillarda ham bu raqamlarda katta farqni koʻrishimiz mumkin. Koʻrib turibmizki turizm sohasi bugungi kunda eng muhim iqtisodiy sohalardan biriga aylangan. Shu sababdan dunyoning juda koʻp davlatlari turizm sohasini yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida shakllantirish va sayyohlar oqimini jadal oshirish boʻyicha barcha chora-tadbirlarni amalga tadbiq qilishmoqda.

Turizmning samaradorlik darajasi quyidagi raqamlarda oʻz aksini topgan: 2015 yilda eng koʻp xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli oʻntalikdan joy olgan. Biroq bu koʻrsatkich boʻyicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Hongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin.

Afsuski, Oʻzbekiston turizm sohasida hali ancha orqada ekanligini koʻrishimiz mumkin. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar boʻyicha kengashi (BTSK) tomonidan berilgan baholar natijasiga koʻra, Oʻzbekiston sayyohlar tashrif buyurishi boʻyicha dunyo mamlakatlari orasida 150-oʻrinni egallab turibdi.

Davlatimiz jahon sayyohlik bozorida oʻz oʻrniga ega boʻlishiga qaramasdan, turistlarga qulay shart-sharoit yaratish, servis xizmatlarini yaxshilash, sayyohlik

obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi bo'yicha juda past. Shu sababli bu borada sezilarli natijalarga erishish va o'sish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog'liqdir.

Turizm sohasi bo'yicha raqobatbardosh davlatlar reytingida dunyodagi (madaniy zaxiralar, arzon infratuzilma, sayyohlik mahsulotlari narxi, xavfsizlik darajasi, xalqaro shaffoflik jihatidan) eng jozibador 140 ta sayyohlik maskanlari qayd etilgan bo'lib, bu ro'yxatda Qozog'iston 85-o'rin, Qirg'iziston 116-o'rin, Tojikiston 119-o'rinni egallagan, O'zbekiston esa Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida eng oxirgi o'rinda turibdi va bu reytingga kiritilmagan.

Yaqinda rasmiy saytlardan birida 2017-yilning birinchi yarmida yurtimizga 1 million 800 ming nafar sayyoh tashrifi qayd etilgani, bu ko'rsatkich 2016-yilga qaraganda 17 foizga ko'tarilganligi haqida yozilgan maqolaga ko'zim tushdi. Nazarimda, bu ko'rsatkichlarda biroz mubolag'a bor. Chunki o'zim aynan sayyohlik sohasida ishlayotganim bois, shunday fikrdaman. Buning sabablarini maqolam davomida ko'rsatib o'tishga harakat qilaman.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. Sayyohlar oqimini yanada oshirish, ularni ohanrabodek jalb qilish uchun nima qilishimiz kerak?

O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga ega qadim tarixga ega davlattir. 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega bo'lgan yurtimizga Sayyohlar oqimi kundan kunga oshib bormoqda. Bu tarixiy qadamjolarning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashganligini juda yaxshi bilamiz. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan va barchasi bugungi kunda keng miqyosda rekonstruksiya qilingan bo'lib bu sayyohlar tashrifi va qiziqishini kundan kunga oshirib bormoqdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turizm sohasidagi qonunlar. www.Uzbekiston.travel

2. O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarga kelgan va ketgan shaxslar.25.01.2021. www.stat.uz

3. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.

4. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. //"SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.

JALOLIDDIN RUMIYNING "MASNAVIYI MA'NAVIY" ASARIDAGI MASALLARDA ILON OBRAZI

Babayev Maxmud Tashpulatovich
Buxoro davlat universiteti
"Nemis filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi
email: m.t.babaev@buxdu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahon adabiyotining buyuk siymosi Mavlono Jaloliddin Rumiy(Balxiy)ning shoh asari- «Masnaviyi Ma'naviy» asarida masallarning qo'llanilishi, ushbu masallarda salbiy obraz-ilon obrazining turli ramzlarda kelishini ochishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: «Masnaviyi Ma'naviy», masal, majoziy iboralar, inson, ilon, ajdaho.

ABSTRACT

In this article, an attempt is made to reveal the use of parables in the great work of world literature, Mavlana Jalaluddin Rumi (Balkhi), "Masnaviyi Ma'navii", and the appearance of the negative image-snake image in different symbols in these parables.

Key words: "Masnaviyi Ma'navii", parable, figurative expressions, man, snake, dragon.

KIRISH

Jahon adabiyotining buyuk siymosi Mavlono Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi Ma'naviy» asari ma'nolari mohiyatiga ko'ra so'fiylik qomusi, insoniyat tomonidan yaratilgan eng shoh asar namunasidir. 25 ming 632 (boshqa bir manbaga ko'ra 26 ming 840) baytli, olti daftardan iborat «Masnaviyi Ma'naviy» asari shoir va tarjimon Sulaymon Rahmon o'zining «Rumiy va uning durdona asari «Ma'naviy Masnaviy»ning o'zbekcha tarjimasiga oid» maqolasida ta'kidlaganidek «Ma'naviy masnaviy» mohiyatan Qur'oni karimning o'ziga xos she'riy tafsiri va hadisi shariflarning sharhidan, talqinidan iboratdir. «Masnaviy»da Qur'on oyatlaridan 760 marta iqtibos olingan, 745 o'rinda 703 hadisdan foydalanilgan. Muxtasar aytsak, «Ma'naviy masnaviy»ning botiniy mohiyati shahodat kalimasining – ya'ni, «La ilaha

illalloh»ning turli-tuman hikoyatlar, masallar, rivoyatlar, hikmatlar zamiriga singdirilgan zikrlari yig'indisidan iboratdir; uning bosh maqsadi – ana shu hikoyatlar, latifalar, masallar, rivoyatlar, hikmatlar vositasida tavhidni – Allohning yagonaligini, sherigi yo'qligini zikr etish va tasdiqlashdir. Yanayam to'g'rirog'i, bu asar mavlono Rumiyning buyuk zot Allohning yakkayu yagona ekanligini tasdiqlab qilgan zikrlari, Uning Zoti, Sifoti va Qudrati haqidagi fikrlari, Uning bani Odamga bergan ne'matlari uchun Unga astoydil shukrlarining badiiy ifodasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi Ma'naviy" asaridagi masallarda ilon obrazining yoritilishini tahlil qilishga urindik.

"Masnaviyi Ma'naviy" asaridagi masallarda ijobiy rollarni tasvirlashda bo'lgani salbiy obrazdagi qahramonlarni tasvirlashda ham xuddi shunday tamoyillar mavjud. Bu erda faunaning o'sha vakillari antropomorfizatsiya jarayonlariga kirishadi, ular boshida mifologik, ertak va keyinchalik adabiy salbiy belgilar turini shakllantiradi. Aytish joizki, "Masnaviy"da bu turdagi uslub ancha keng tarqalgan. Buning sababi Jaloliddin Rumiy ijodining o'z pafosidadir: shoirning faqat bir maqsadi bor – odamni gunohi, uni halok qilgan birinchi gunohi uchun haydalgan joyiga, ya'ni jannatga qaytarish. Binobarin, shoir uchun notinch qalbida, eng avvalo, uning poklanishiga xalaqit beradigan insoniy illatlar nishon edi. Shuning uchun, zulmat kuchlariga xizmat qiladigan yirtqich hayvonlar ko'proq edi. Bu insonning ruhiy ozod bo'lish uchun abadiy kurashining belgisi bo'lishi mumkin. Aytilganlarning tasdig'i sifatida shuni ta'kidlaymizki, Jaloliddin Rumiy o'z asarida ajdaho so'zi va uning forscha-arabcha sinonimini juda ko'p marta tilga olgan.

Buyuk adib Firdavsiy tomonidan to'plangan eroniylarning afsona va ertak, rivoyat va yirik dostonlarida, o'tmish so'z ustalarining she'r devonlarida va ayniqsa, ko'plab xalq ertaklari – dostonlarida olov nafasidan odamlar vahimaga tushadigan, yovuzlikning timsoli, bir necha boshli qanotli mavjudot- ajdaho (ilon)dir. Eron mifologiyasida bu jonzot ramz bilan belgilangan. Angra Manyu (Axriman), sof, nurli xudo Ahura Mazdaning qudratli antipodi. Shuning uchun, mashhur fikrda, har qanday yirtqich hayvon va qudratli mavjudot ajdahoga o'xshatiladi. "Masnaviy"da "ajdaho" va "ilon" so'zlari tan (2, 2293-2295), buyuklik (2, 1864-1866), botillik (4, 2357-2359), xavfli va badbaxt odam (4, 610), baxtsizlik (1, 920-921), g'azab va qonxo'rlik (1,1175), ochko'zlik (1, 954-955), axloqsizlik va yovuzlik (1,2293) va nihoyat, ertakdagi mavjudot (4, 2357) obrazlarida keladi.

Lek tavakkaldek kasbi xo'b qani?

Yoki taslimdek yana mahbub qani?

Bas, balodin qochdilar — soʻyi balo,
Bas, ilon quvganda — soʻyi ajdaho. (1daftar, 920-921baytlar),

Necha yuz minglab asrlarkim jahon —
Sahnida oʻn boshli ajdarhosimon
Makru hiyla etdi ul dono guruh,
Togʻni ham tikka qoʻpordi, otdi ul. (1daftar, 954-955 baytlar),

Dedi: tingla, gar soʻzim yolgʻon esa,
Rozimen, hattoki ajdarho yesa. (1daftar,1175bayt),

Tan-devor ortida pinhon ganjmi yo?
Ul chumolidir, ilonmu, ajdaho? (1 daftar,2293bayt)

Ul zaif aqlindin, ey eshshakbaho,
Bul eshak pajmurda boʻlmish ajdaho.
Sen esang Iso tufayli xastadil,
Ul oʻzi sihhat berur, sen qoʻymagil.
Ey nechukdirsen, Isoyi serranj,
Bul jahonda ajdahosiz bormu ganj. (2 daftar, 1864-1866 baytlar)

Boshda qurt erdi, ilon erdi, qaro,
Yoʻlga tushgach, boʻldi devu ajdaho.
Ajdaho ul bir asodir, bas, senga,
Ey Muso joni asiru mast senga.
Hukmi «Xuzho, lo taxaf» bermish Xudo,
To qoʻlingda ajdaho boʻlgan aso. (2 daftar, 2293-2295 baytlar)

Sen oʻshal nur birla yurgaysen hamon,
Ajdaho, kajdumlar ichra sogʻ-omon. (4 daftar, 610 bayt)

Chun oʻzingni aylading bandi havo,
Boʻldi ul qurting baloyi ajdaho.
Ajdahoga ajdahoni shayladim,
Bir nafasda yamlamoqni oʻyladim.
Bir nafasda koʻzlaringni namlagay,
Ajdarim ul ajdaringni yamlagay. (4 daftar, 2357-2359 baytlar)

"Masnaviy"dagi ilonning eng muhim ifodasi jozibadorlik bo'lib, u imkoniyatlarga erishish bilan talabchanlikka, hukmronlikka aylanadi, odamni yo'qlik qa'riga tortadi. Oddiy odamlar bu jonzotning issiq nafasiga qarshi tura olmaydi. Faqat ma'naviy kamolotga erishgan shaxslargina bu baloni yengish imkoniga ega.

Shoir "Masnaviy"da biz quyida sanab o'tadigan masallarning butun turkumida ilon obrazini "antropomorfizatsiya" qilgan:

1- "Muso alayhissalomning tayog'i ilonga aylanib, Fir'avn sehrgarlarining ilonlarini yutib yuborishi haqidagi hikoya" (4 daftar, 2538 bayt);

2- "Bir amir og'ziga ilon kirgan kimsani ranjitgani" (2 daftar, 1882-1935 baytlar);

3- "Mustafo(s.a.v)ning etigini burgut olib uchgani va uni havoda to'nkarganda ichidan qora ilon tushgani"; (3 daftar, 3239-3255 baytlar)

4- "Anbiyo alayhissalomlarning yana javob berishgani" (3 daftar,2956-2983 baytlar);

5- "Bir ilonchi boshqa bir ilonchining ilonini o'g'irlagani"(2 daftar, 135-140 baytlar)

NATIJALAR

Jaloliddin Rumiy axloqiy falsafasining mazmun-mohiyatini ilon yoki ajdaho obrazi orqali anglash mumkin bo'lgan "bir ilonchi sovuqda muzlagan ajdahoni o'lgan deb o'ylab, Bag'dodga keltirgani" asarda tanlangan tizim bo'yicha tahlil qilish uchun mos namuna sifatida tanlangan.

Aniqlik kiritish kerakki, qissada "mor" (ilon) va "ajdaho" so'zlari doimiy ravishda aralashib ketgan bo'lib, Jaloliddin Rumiy ularni sinonim deb hisoblagan. Hikoyaning syujeti g'oyaviy-tematik mazmunini ifodalash uchun nihoyatda muhim bo'lganligi uchun biz bu yerda hikoyaning syujetini taqdim etamiz, u quyidagicha ko'rinishga ega: "Bir ilon ovchi qotib qolgan ajdahoni ko'tarib, uni o'lik deb adashtiribdi. Bag'dodga olib ketdi. Bir marta issiqda ajdaho jonlanib, odamlarga hujum qildi. U chiqaradigan olov shahar binolarini yondira boshladi. Nihoyat, ilon ovchini o'zi yutadi" (3 daftar, 976-1066 baytlar). Hikoya qahramonlari: ilon ovchi o'z qilmishining oqibati haqida o'ylamaydigan tor fikrli odam; ajdaho - markaziy qahramonning antipodi, Ahrimanning avlodi va odamga qarshi; shahar aholisi jangchilar olomonidir, bu esa vaziyatning fojiasini kuchaytiradi; Qahramonlarning tarkibi odamlar va hayvonlardir.

Hikoya ohangi odatiy, "Masnaviy"dagi Mavlonoga xos, ya'ni, jiddiy, rasmiy va didaktik.

Hikoya turi: ochiqchasiga, chunki unda Xudo yuborgan Musoni onasi dengizga uloqtirgani aytiladi. Hikoyaning shakli aforistik va qisqa bo'lib, unda dahshatli ajdahoning tog'da uchrashishi va ajdaho tomonidan ilon ovchining yutib yuborishi tasvirlangan.

Hikoyaning tasavvufiy ma'nosi shunday: mohiyatan har bir insonda ajdahodek ruh bor. Shaxsning bu ruhga befarqligi, bu ruh odamda ilhomlantiradigan istaklarga qarshilik ko'rsatishi uni uyquga soladi, lekin odamlar uning nafsiga bo'ysunsa, u jonlanadi. Qayta tiklangan ajdahoning birinchi qurboni uni uyg'otgan, ajdahoga mehr ko'rsatgan kishi o'z mehrining qurboniga aylanadi.

Shu munosabat bilan shoir shunday deydi:

O'ylakim, nafsing o'lik ajdar emish,

Chorasizlikdin magar ul muzlamish. (3 daftar, 1053bayt)

Hikoya kompozitsiyasi: barcha harakat va hodisalar ma'lum bir mantiqqa amal qiladi: tog'ning sovuq havosida ilon muzlaydi. Ilonni chorasiz qolganini ko'rgan ilon ovchi uni ermak uchun shaharga olib boradi. Bag'dodning jazirama havosi ilonni jonlantiradi. Jonlangan ajdahoning birinchi qurboni ilon ovchining o'zi bo'ladi.

Bunday holda, belgilar o'rtasida ovozli aloqa yo'q. Shoir tasvirlash orqali muhit yaratadi va keyin antipodlarning xatti-harakati va harakatlarini tasvirlaydi.

Asar muallifining hikmatli qarashi shundan iboratki, nafs ruhi inson ichida uxlayotgan ajdahoga o'xshaydi. Buning uchun tegishli vaziyat paydo bo'lganda, u uyg'onadi va odamni yo'q qiladi.

Ajdahoga xos xususiyatlar asosida yaratilgan timsol va allegoriyalar quyidagicha: qissada ajdaho insonning qalbida o'tirgan va to'g'ri muhitda uyg'onishga tayyor bo'lgan shahvatni ifodalaydi. Iroqning issiq quyoshi mamlakat gullab-yashnashining timsoli bo'lib, ajdaho tanasini o'rab turgan arqonlar - matonat va vazminlik bo'lib, ba'zan odamni tinchlantiradi yoki tushkunlikka soladi va ajdaho ularni sindirishga qodir.

Qadimgi Eron madaniyatida ilon aqlli zararkunandaning eng yomon ramzi va metaforasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ilon Ahrimanning eng kuchli mavjudotlaridan biridir. Mitraik e'tiqodda bu hayvon zardushtiylik tushunchalaridan ma'lum darajada ajralib turadigan ijobiy ramzlardan birini ifodalagan, unga ko'ra ilon zararli Ahriman jonzotlari sifatida tasniflanadi. Mitra ibodatxonalarining barcha devor rasmlarida "bahor faslida tabiatning tiklanishi" kult marosimi sahnasi takrorlanadi, bunda Mitra buqani yiqitadi. Bu sahnada ilon tuproq (er) timsoli sifatida, hosildor bo'lish uchun yangilanadigan hayot belgisi sifatida buqaning qonini ichishi mavjud. Bugun biz bu ramziylikni har kuni hayot kosasidan ichadigan ilonning tibbiy ramzida ko'ramiz.

MUHOKAMA

Jaloliddin Rumiy "Masnaviy"da ilon timsolini 152 marta ijobiy va salbiy ma'nolarda qayd etgan: boylik ishtiyoqi (3, 782; 5, 1952; 2, 2944, 12358), tayanch et (2, 2528), (1, 775). ; 2, 1878; 6, 3842), buzuqlik, azob (2,154; 2,848; 3,4010), Shayton. (2,257), valiy (2,845), zararli fe'l, azob va qayg'u (2,594-598), ikkiyuzlamachilar

(3,3595; 2,230), shahvat (5,517), katta va zich (2,3471), do'zax azobiga loyiq inson (2,3510), zolim(3,1398), xavfli dushman (3,3455), hayajon, tushkunlik (6, 1953), past g'ayrioddiy (5, 301-302), yerdagi hayot va o'tkinchi lazzatlar (3,994-999) va to'la hayot, nozikliklar (2.3465). "Masnaviy"dagi "ilon" so'zi ustiga qurilgan majoziy iboralar, epitetlar, metafora, timsollarning aksariyati shaytonning xizmatkori bo'lgan qabih inson va "tana ovozi"ning xususiyatlarini yaqqol aks ettiradi. o'zining o'tkir, haqoratli ifodalari bilan begunoh odamlarni ranjitadi, yolg'on va ayyorlik ularni to'g'ri yo'ldan adashtiradi:

2 daftarning 2321 baytida shoir

Ey falak Haq rahmini ko'r, ayla rahm,

Sen chumoli siynasiga solma zahm.

- deb hayqiradi.

XULOSA

Mavlononing antropomorfik mavzularga murojaati uning tarbiyalovchi yoki axloqiy g'oyalarini oddiy tasvirlashdan ko'ra chuqurroq maqsadni ko'zlagani aniqlandi. Mutafakkirning pirovard maqsadi insonni ratsional mavjudot sifatida tubdan o'zgartirishdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. Birinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2005.

2. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. Ikkinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002.

3. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. Uchinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent-2003-Tehron.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, Eron Islom Respublikasi «Al-Hudo» xalqaro nashriyoti.

4. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. To'rtinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent-2003-Tehron.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, Eron Islom Respublikasi «Al-Hudo» xalqaro nashriyoti.

5. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. Beshinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi.–Eron Islom Respublikasi «Al-Hudo» xalqaro nashriyoti, Tehron- 2004.

6. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. Oltinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. –Eron Islom Respublikasi «Al-Hudo» xalqaro nashriyoti, Tehron-2004.

7. Tashpulatovich, B. M., & qizi, T. M. S. (2022). The Role of Translation in Intercultural Communication. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(6), 26-31. Retrieved from https://cajlpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/374

8. Babayev Maxmud Tashpulatovich, & Jumayeva Nigina Djamalovna. (2023). TARJIMONLIK KASBINING DOLZARBLIGI VA ZAMONAVIY SHAROITDA AVTOMATLASHTIRILGAN TARJIMANING XUSUSIYATLARI. Innovative development in educational activities, 2(9), 111–115. https://doi.org/10.5281/zenodo.7938126

9. Babayev Maxmud Tashpulatovich. (2023). H.HESSENING "SHOIR" ERTAGI STILISTIK XUSUSIYATLARI. Innovative development in educational activities, 2(8), 303–309. https://doi.org/10.5281/zenodo.7884981

10. Babayev Maxmud Tashpulatovich, & Ashirova Rayhon Anvar qizi. (2023). TARJIMA TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI. Innovative development in educational activities, 2(9), 63–69. https://doi.org/10.5281/zenodo.7937985

11. Babayev, O. (2024). PERIODISCHE PHASEN DER FORSCHUNGEN VON RUMIS WERKEN IN DEUTSCHER SPRACHE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 46(46). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12002

12. Babayev, O. (2023). ПЕРСИДСКАЯ ЛИТЕРАТУРА В СТРАНАХ, ГОВОРЯЩИХ ПО-НЕМЕЦКИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 40(40). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10688

13. https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/sulaymon-rahmon-rumiy-va-uning-durdona-asari-manaviy-masnaviy-ning-ozbekcha-tarjimasiga-oid.html

TALABALARNING FIZIKA FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMGA OID KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Abror Inatov.,
Karshiboyev Shavkat.,
Musakulov Qodirbek., Eliboyev Suhrob
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti
O'zbekiston. Samarqand Sh.,140100. Spitamen shoh ko'chasi 166-uy.
shavkat.qarshiboyev.89@bk.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lim jarayonida talabalarning fizika fanidan mustaqil ta'limini tashkil etishda axborot va raqamli texnologiyalardan foydalanib ijodiy-uslubiy malakalarini shakllantirish mumkin. Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, raqamli texnologiyalar, talaba, virtual materiallar, laboratoriya, keys,kaspiy, kompetentlik, pedagog, ko'nikma.

• chizmachilik darslari kompyuter grafikasi darslariga (bu alohida fanlarni bir-biri bilan chalkashtirmaslik zarur) aylantirmasligi shart.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Talabalarning grafik dasturlar bazasida chizma bajarishlariga tegishli metodik masalalarni ko'rib chiqamiz.

Hozirgi kunda chizma va uch o'lchamli modellar tasvirlarini bajarish bo'yicha juda ko'plab AutoCad, TopCAD, JCAD, 3D-GRAF, 3D-MAX, KD- Master, kabi grafik tizimlar kishilarning ilmiy va muhandislik faoliyatining turli sohalarida keng qo'llanilmoqda. Ulardan ta'lim tizimida ommalashgani *AutoCAD* hisoblanadi.

AutoCAD mamlakatimizda va chet ellardagi ko'pchilik korxona va tashkilotlarda loyiha-chizma ishlarini avtomatlashtirishning standartlashtirilgan tizimi sifatida shakllangan.

Metodik nuqtai nazardan chizmalarni kompyuterda bajarish mumkin bo'lgan chizmachilik va grafik tizimlarni birgalikda o'rganish masalasi hal qilinmagan muammo sifatida yuzaga chiqadi. Hozirgacha pedagogika fanida chizmachilikni qaysi mavzularini o'zlashtirgandan keyin elektron chizmalarni bajarishni boshlash mumkinligi, o'quvchilarni kompyuter ular uchun chizma bajarishi mumkin bo'lgan hollarda mustaqil chizma bajarishlarini qanday qilib ta'minlash mumkinligi kabi ko'plab savollarning javoblari asoslanmagan. Shu yerda umumt'lim maktablarining chizmachilik kursida o'rganiladigan kompyuter grafikasi bo'limiga to'xtalib o'tsak. Amaldagi dastur va darsliklarda bu bo'limga 2 (ikki) soat vaqt ajratilgan bo'lib, bu vaqt ichida o'quvchilar grafik redaktor yordamida oddiy geometrik shakllarning proyeksiyalarini tuzish hamda bajarilgan jismning fazoviy holatini va uning shaklini o'zgartirishni o'rganishlari kerak. Yana yuqorida bildirilgan mulohazalarni e'tiborga oladigan bo'lsak ajratilgan ikki soat ichida o'quvchilar kompyuter grafikasining alifbosini ham o'rganishga ulgurolmaydilar. Shuning uchun chizmachilik darslari jarayonida kompyuterlar va grafik dasturlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish metodikasining taklif qilinishi to'g'riroq bo'lar edi.

Kompyuter chizmachilikning quyidagiga o'xshash bo'limlari:
• Detal shaklini tahlil qilish;
• Detal chizmalariga o'lcham qo'yish;
• O'quvchilarga detalning hajmli shaklini namoyish qilish kabilarda foydali bo'lishi mumkin.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

1. Detal shaklini tahlil qilishda kompyuter foydali bo'libgina qolmay, zarur ham hisoblanadi. Bunda monitor ekranida o'quvchilar detalni alohida geometrik jismlarga ajratish mumkin bo'ladi, agar bunda qiyinchiliklar paydo bo'ladigon bo'lsa, o'qituvchi yoki dasturning o'zi detalni geometrik shakllarga ajratilgan holatdagi grafik tasvirini namoyish qiladi. Yuqorida aytilayotgan fikrlardan kelib chiqqan holda detal shaklini tahlil qilish kasb-hunar maktablarida proyeksion chizmachilik, mashinasozlik chizmachiligi fanlarida aynan shu imkoniyatlari mavjudligi biz pedagoglar uchun qulay. Proyeksion chizmachilik fanida "Detallarni tahlil qilish", "Aksonometrik proyeksiyalarni qurish", "Tekis kesim", "Sirtlarning kesishishi", Mashinasozlik chizmachiligi fanida "Yig'ish chizmalarini o'qish", "Yig'ish chizmalarini detallarga ajratish", "Ajratilgan detallarni qayta yig'ish", "Yig'ma birlikning aksonometriyasini qurish" mavzularida dasturning 3D interfeysida foydalanish, darslarni samarali tashkil etish hamda maqsadga erishishimiz uchun zamin yaratadi. (1-rasm).

1-rasm

1. O'lchamlarni to'g'ri qo'yish uchun shaklni tahlil qilish - bajariladigan ishlarning asosiylaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun bu holda ham kompyuterdan oldingiga o'xshash tarzda foydalaniladi.

2. Shuningdek, chizma bo'yicha detalning shaklini tasavvur qilishga qiynaladigan o'quvchilarga ushbu mavzuni o'rganishlarida kompyuterdan foydalanish katta yordam beradi. Masalan, "berilgan ikkita ko'rinish bo'yicha uchinchisini bajarish" mavzusidan grafik ish bajarishda o'quvchilarda qiyinchilik tug'ilgan hollarda kompyuterda detalning yaqqol tasvirini namoyish qilish orqali ularga topshiriqni mustaqil bajarishlariga yordam berib yuborish mumkin. Odatda o'qituvchilar bunday o'quvchilarga detal modelini plastilin yoki boshqa materialdan bajarib ko'rishni tavsiya qilib kelishar edi. Maktab chizmachilik kursi bo'yicha tayyorlangan SD-disk bo'ladigan bo'lsa, bunga zaruriyat qolmaydi. O'quvchilar kompakt-diskdagi detalning hajmli tasvirini har xil tomondan aylantirib qarab o'rganishlari mumkin. Bunda faqat o'quvchilar uchinchi ko'rinishni kompyuter yordamisiz, mustaqil ravishda chizishlari zarur bo'ladi. (2-rasm).

2-rasm

МУHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

AutoCAD-tizimlarida uch o'lchamli obyektlarni yaratish uchun modellashning asosan uch: karkasli, sirtli va qattiq jismli modellash usullaridan foydalaniladi; ularning har biri real obyektlarni reallikning har xil darajasida yaratish imkonini beradi:

• *Karkasli modellash.* Ushbu modelda obyektning faqat qoburg'alari taqdim etiladi, uning qirralari aniqlanmaydi, shuning uchun model shaffof bo'ladi. Karkasli

modelda hajm tushunchasi bo'lmaydi.

• *Sirtli modellash.* Bu modelda obyektning qoburg'a va qirralari aniqlanadi, u karkasli modelga nisbatan aniqroq bayonni ta'minlaydi.

• Model shaffof emas, oldindagi qirralar ortdagi qirralarni berkitib turadi. Sirtli model hajmga ega, lekin massani hisobga olmaydi, chunki model devorlari qalinligi hisobga olinmaydi.

• *Qattiq jismli modellash.* Bu model obyektni haqiqatga yaqin bayon qilish imkonini beradi. U obyektning tashqi qirralari va qoburg'alari haqida batafsil informatsiyani beradi hamda uning ichki strukturasini bayon qiladi. Qattiq jismli model hajm va massaga ega va material xarakteristikasini hisobga oladi.

Uch o'lchamli modellash quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

• modelni fazoning istalgan nuqtasidan ko'rib chiqish;

• model kesimini bajarish;

• modelning ikki o'lchamli chizmalarini avtomatik tarzda bajarish;

• modelning real aksini olish;

• material xarakteristikalari va tashqi yoritishni qo'shish.

AutoCADda uch o'lchamli fazoda ishlash uchun komandalar mavjud, ular yordamida uch o'lchamli obyektlarni modellash, materialni bayon qilish va yoritishni o'rnatish mumkin. AutoCAD 2021 da uch o'lchamli modellash uchun qulay maxsus interfeysi mavjud.

Muhandislik kompyuter grafikasiga oid bilimlarni muvaffaqiyat bilan egallashning asosiy shartlaridan biri o'qituvchilarning darslarini sifatli bo'lishi, zamon talabida dars o'tishi, yangi-yangi ta'lim texnologiya va vositalarini tadbiq etishi lozim. Buning uchun o'qituvchi zamondan ortda qolmasligi va yangidan kashf etilayotgan yutuqlar texnologiyalarni bilishi lozim va ularni o'z darslarida qo'llay olishi kerak.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Muhandislik kompyuter grafikasi darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash, geometrik o'lchash va yasashning amaliy usullarini o'rganish imkoniyatlarini beradi. Asosiysi, axborot texnologiyalari - chizma, diagramma, jadval ko'rinishidagi ma'lumotlarni o'qish qobiliyatini rivojlantiradi, mustaqil o'qish va o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Maqolamning asosiy maqsadi yuqorida aytganimdek kompyuter texnologiyalaridan, xususan AutoCAD dasturidan dars jarayonida unumli, o'rinli foydalanib dars samaradorligini sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo'lishdan iborat edi va bunga qisman bo'lsada erisha oldim deb o'ylayman.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Rixsiboyev T. Kompyuter grafikasi. Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent – 2006 y.

2. Xolliyev Q. J. AutoCAD. "Muharrir nashriyoti". Toshkent 2009 y.

3. Chizmachilik darslarida AutoCAD dasturi yordamida chizmalarni bjarish (o'quv-uslubiy qo'llanma). Toshkent-2009.

4. Сейтимбетов, С. (2023). Факторы и средства, влияющие на развитие творческих способностей студентов (на примере инженерной компьютерной графики). *Проблемы инженерной графики и профессионального образования*, *69*(2), 33-39.

5. Maratovich, S. S. (2022). Talabalarda konstruktorlik qobiliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o 'rni. Conferencea, 50–53.

YOZUVCHI VA SHOIRLAR UCHUN MUALLIFLIK HUQUQI BILAN BOG'LIQ DOLZARB MASALALAR: XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBA

Ozod Mustafoyev
O'zJOKU magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada yozuvchilar va shoirlarning mualliflik huquqi bilan bog'liq xalqaro va milliy tajriba, konvensiyalar, qonun va qarorlar, mavjud muammolar, O'zbekisonda mualliflar haqlarini yig'ish va taqsimlash tashkilotlari, mazkur tizimni rivojlantirish borasidagi takliflar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: mualliflik huquqi, konvensiya, "adabiy iqtisodiyot", adabiyot, ijodkorlik.

ABSTRACT

The article talks about the international and national experience, conventions, laws, and decisions related to the copyright of writers and poets, existing problems, organizations for the collection and distribution of authors' royalties in Uzbekistan, and proposals for the development of this system.

Keywords: copyright, convention, "literary economy", literature, creativity.

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о международном и национальном опыте, конвенциях, законах и решениях, связанных с авторским правом писателей и поэтов, существующих проблемах, организациях по сбору и распределению авторских гонораров в Узбекистане, а также предложениях по развитию этой системы.

Ключевые слова: авторское право, конвенция, «литературная экономика», литература, творчество.

KIRISH

Insoniyat tarixida jamiyat tafakkurining oliy mahsulidan biri bu adabiyot sanaladi. Adabiyot insoniyat tajribalari, e'tiqodlari, qadriyatlari va an'analarining ifodasi sifatida kelajak avlodlarga turli madaniyatlar va tarixiy davrlarni tushunish imkonini beradi. Adabiyot orqali biz turli jamiyatlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vaziyatlari

haqida tushunchaga ega bo'lish barobarida avlodlar uchun o'ta zarur haqiqatlarni qoldirishimiz mumkin.

XX asrda G'arb va Sharq adabiyoti namunalarini olib qaraydigan bo'lsak, inson psixologiyasi, millatlar tafakkuri, jamiyat tanazzuli sabablari, erk va ozodlik mavzusi o'ta muhim bo'lgani kabi texnologik taraqqiyot avj olgan XXI asrda ham inson ruhiyatini taftish qilish shoir va yozuvchilar oldida turgan muhim masala sanaladi.

Sobiq ittifoq parchalangach, mustamlaka respublikalar o'rnida mustaqil davlatlar tashkil topganidan so'ng barcha sohalarda xususiy mulkchilik madaniyati jadal kirib keldi. Tabiiyki bu adabiyotda ham o'z aksini topdi. Garchi bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham yozuvchilik va shoirlik, badiiy asar yaratish kasb o'laroq tirikchilik manbai bo'la olmayotgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda bir qator ilg'or nashriyotlar adiblar bilan o'zaro shartnomalar asosida ish olib borayotganligini zamonaviy jamiyatlardagi mualliflik huquqi masalalari sari siljish, deb atash mumkin. Albatta, bugungi umumiy vaziyatni mualliflik huquqi bilan bog'liq qonunchilikning amalda to'liq ishlamayotgani, zarur tizimlarning mavjud emasligi bilan ham izohlash o'rinli. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar" to'g'risidagi qonuni 35-moddasida mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi nazarda tutilgan.[1] Hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko'rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin yana yetmish yil, taxallus ostida yoki imzosiz qonuniy oshkor qilingan asarga bo'lgan mualliflik huquqi esa asar oshkor qilinganidan keyin ellik yil davomida amal qiladi. Mualliflik huquqi, mualliflik ismi-sharifiga bo'lgan huquq va muallif obro'sini himoya qilish huquqi muddatsiz muhofaza qilinadi.

Shu o'rinda badiiy ijod bilan shug'ullanuvchi shaxs, ya'ni muallif o'zi kim, degan savol tug'ilishi tabiiy. Muallif — bu ijod obyektini o'z mehnati bilan yaratgan fuqaro. Bunday ijodiy obyektni yaratishda shaxsiy ijodiy hissini qo'shmagan fuqarolar intellektual faoliyat natijalarining mualliflari deb tan olinmaydi.[2]

Zamonaviy mamlakatlarni olib qaraydigan bo'lsak, mualliflik huquqi qonunlari yozuvchi va shoirlarning intellektual mulk huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Albatta, internetning paydo bo'lishi, tezkor texnologik taraqqiyot va raqamli innovatsiyalar asrida yozuvchi va shoirlar o'zlarining intellektual mulk huquqlarini himoya qilishda yangi muammolarga duch kelishmoqda. Shu o'rinda mualliflik

---

[1]Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, [National Legislative Database] 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son.

[2]I.B.Yakubova. Mualliflikhuquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuU nashriyoti, 2020. – 19 b.

huquqiga oid qonunchilikning yozuvchi va shoirlarga bog'liq asosiy tamoyillari nima, degan savolni o'rtaga tashlash mumkin. Buning izohi sifatida esa mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlar ijodkorlarga o'z asarlariga mutlaq huquqlar berishini qayd etish lozim. Ya'ni, bu huquqlar odatda asarlarni qayta ishlab chiqarish, tarqatish, omma oldida ijro etishga ruxsat berish kabi mulkiy va nomulkiy huquqlarni o'z ichiga oladi. Mualliflik huquqini himoya qilish odatda asar yaratilganda avtomatik ravishda beriladi. Umuman olganda, mualliflik huquqi yozuvchi va shoirlar uchun muhim professional jihat bo'lib qolmoqda va bu sohadagi dolzarb muammolarni tushunish ularga o'z manfaatlarini samarali himoya qilish va ijodiy mehnatlari uchun adolatli tovon olish imkonini beradi.

Mualliflik huquqi bo'yicha eng muhim xalqaro shartnoma Bern konvensiyasidir. O'zbekiston 2004-yilda adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasiga qo'shilgan. Bern konvensiyasi hozirda amalda va Jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan boshqariladi. Konvensiya mualliflarga bir qator huquqlar bergan bo'lsa-da, Bern konvensiyasining eng muhim jihati shundaki, mamlakatlar boshqa a'zo davlat fuqarosi bo'lgan muallifga har qanday huquqlardan tashqari o'z fuqarolariga taqdim etayotgan himoyani ham berishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, Fransiya fuqarosining Polsha yoki Marokashdagi ishi avtomatik ravishda Polsha yoki Marokash fuqarosining ishi bilan bir xil himoyadan foydalanadi.[1]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, so'nggi yillarda O'zbekistonda mualliflik huquqi bilan bog'liq nizoli ishlar oshib borayotganligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'z-o'zidan ushbu yo'nalish institutlari (mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar) faoliyati nisbatan sezilayotganligini aytish mumkin. Bu jarayon esa ijodkorlar o'z huquqlarini tushunib yetayotganligidan darak beradi.

Dunyo bo'ylab bir qancha tashkilotlar yozuvchi va shoirlarning huquqlarini himoya qiladi. "PEN International" ana shulardan biri. 1921-yilda tashkil etilgan mazkur idora butun dunyo bo'ylab so'z erkinligi va yozuvchilar huquqlarini himoya qiladi. Tashkilot 100 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat yuritadi. Yana bir xuddi shunday tuzilma Xalqaro mualliflar forumi (IAF). IAF xalqaro miqyosda mualliflarning manfaatlarini ifodalovchi global tarmoqdir. U mualliflik huquqi, adolatli shartnomalar va yozuvchilar uchun so'z erkinligi kabi masalalarga e'tibor qaratadi. Amerika Qo'shma Shtatlardagi yozuvchilar uchun professional tashkilot bu Mualliflar uyushmasi. U mualliflar huquqlarini himoya qiladi, huquqiy yordam ko'rsatadi va yozuvchilarga nashriyot sohasida yordam berish uchun resurslarni taklif qiladi.

---

[1] https://siip.uz/postsuz/67

"Ijodiy iqtisodiyot": mualliflik haqlarini to'plash va tarqatish. Mualliflik haqlarini yig'ish va taqsimlash tizimi bu amalda yozuvchi va shoir uchun nisbatan iqtisodiy erkinlik olib keldi va ijodiy jarayon uzluksizligini ta'minlaydi. Yozuvchi va shoirlar uchun iqtisodiy erkinlik va ijodiy erkinlik o'rtasidagi munosabatlar aslida murakkab va serqirradir. Iqtisodiy erkinlik, shubhasiz, ijodiy faoliyatni osonlashtirishi va izlanish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin bo'lsa-da, bu badiiy yuksak asar yaratishda eng zarur shart emas aslida. Ko'plab yozuvchi va shoirlar iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, o'z tajribalaridan va atrofdagi dunyodan ilhom olib, ijodiy muvaffaqiyatga erishganlar. Bunga jahon modernizm adabiyotini boshlab bergan Kafkani misol qilish mumkin. Eng chuqur va ta'sirli asarlar ko'pincha qiyinchiliklar, ziddiyatlar ta'sirida paydo bo'ladi.

Global dunyoda mualliflik huquqlarini to'plash va tarqatish ijodiy iqtisodiyotning muhim jihatiga aylangan. Musiqadan adabiyotgacha, kinodan dasturiy ta'minotgacha, ijodkorlar o'zlarining intellektual mulklarini himoya qilish va mehnatlari uchun adolatli to'lov olish uchun ayni shu tizimga tayanadilar. Biroq, mualliflik haqlarini to'plash va tarqatish landshafti ko'p qirrali va butun dunyo bo'ylab turli xil madaniy, huquqiy va texnologik kontekstlarni aks ettiruvchi qiyinchiliklarga to'la. Amerika Qo'shma Shtatlari va Buyuk Britaniya kabi ba'zi mamlakatlarda bir nechta nodavlat tashkilotlar bozorda raqobatlashadi va ijodkorlarga vakillik qilishda tanlov taklif qiladi. Aksincha, boshqa mamlakatlarda mualliflik huquqini boshqarish uchun mas'ul bo'lgan markazlashgan hukumat tashkilotlari mavjud. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ko'pincha mualliflik haqini to'plashning samarali tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlashda muammolar mavjud. Cheklangan infratuzilma, resurslarning yetishmasligi ijodkorlarning o'z mualliflik huquqlarini ta'minlash va qilgan ishlari uchun adolatli gonorar olishlariga to'sqinlik qilishi mumkin. Xalqaro tajriba, albatta ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etish va global mualliflik huquqi ekotizimini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Mualliflik haqlarini to'plash va tarqatish global bozorda ijodkorlik, innovatsiyalar va madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning ajralmas qismi ekanligini inobatga olsak, bugungi kunda mamlakatimizda shu turdagi nodavlat tashkilotlar faoliyatini davlat tomonidan hartomonlama qo'llab-quvvatlash, yangi institutlar paydo bo'lishini rag'batlantirish, ular orasida o'zaro raqobat muhitini paydo qilish zarurdir. Bizningcha, mazkur tizimni yaratmay turib, adabiyotni rivojlantirish, adiblarimiz huquqlarini to'la ta'minlash mumkin emas.

REFERENCES (FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR)

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, [National Legislative Database] 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son.

2. O'zbekiston Respublikasi San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi sayti — https://siip.uz/uzb/about

3. *I.B. Yakubova. Mualliflik huquqi. O'quv qo'llanma. – T.*: TDYu *nashriyoti, 2020.*

JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA MENEJMENTNING AHAMIYATI

Safarov O'lmasbek Sulton o'g'li
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini
tashkil etish va boshqarish yo'nalishining 1-kurs magitranti
Email: ulmasbeksafarov0206@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada jismoniy tarbiya va sportda menejmentning asosoiy roli va ahamiyati nimadaligini qolaversa sport sohasidagi barcha tashkilotlarning boshqaruv faoliyati shu jumladan sport inshootlari va jihozlariga alohida e'tibor qaratish buning uchun esa sport sohasida biznesni rivojlantirish kerakligi, sport tashkilotlariga homiylarni jalb qilish va reklama orqali moddiy ba'zani kengaytirish ya'ni samarali byudjetni ishlab chiqish takidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: sport menejmenti, marketing, global miqyosda ulkan biznesga aylandi, Spor menejmenti – bu kompaniya yoki sport tashkilotini boshqarishga imkon beradigan tadbirlar to'plami, homiylik orqali daromadni oshirish, samarali byudjetlarni ishlab chiqish, tashkilot ichidagi turli xizmatlar, sportning biznes tomonini boshqarish

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье какова основная роль и значение менеджмента в физическом воспитании и спорте, а также управленческой деятельности всех организаций в сфере спорта, в том числе спортивных сооружений и оборудования, и для этого необходимо разработать бизнес в сфере спорта, привлечение спонсоров в спортивные организации и оказание материальной поддержки посредством рекламы. Подчеркивается, что расширение экономики, то есть освоение эффективного бюджета.

Ключевые слова: спортивный менеджмент, маркетинг, превратился в огромный бизнес мирового масштаба. Спортивный менеджмент – это совокупность видов деятельности, которые позволяют управлять компанией или спортивной организацией, увеличивать доходы за счет спонсорства, разрабатывать эффективные бюджеты, различные службы внутри организации, управлять деловая сторона спорта.

ANNOTATION

In this scientific article, what is the main role and importance of management in physical education and sports, as well as the management activities of all organizations in the field of sports, including sports facilities and equipment, and for this, it is necessary to develop business in the field of sports, attract sponsors to sports organizations and provide material support through advertising. It is emphasized that the expansion of the economy, that is, the development of an effective budget.

Key words: sports management, marketing, has become a huge business on a global scale, Sports management is a set of activities that allow you to manage a company or sports organization, increase revenue through sponsorship, develop effective budgets, various services within the organization, manage the business side of sports.

Sportni boshqarish ham qiziqarli, ham murakkab bo'lishi mumkin. Bu sport, qonunlar va qoidalarni puxta bilishni talab qiladigan juda talabchan soha. So'nggi yillarda u keskin o'sdi. Batafsilroq bo'lsa, sport menejmenti nima? Sport shunchaki sevimli masg'ulot emas, balki global miqyosda ulkan biznesga aylandi va bu biznesni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lganlarga talab kata. Ushbu maqolada biz sport menejmenti kasbi nima ekanligini, shuningdek, muvaffaqqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan tashkiliy ko'nikmalarni batafsil ko'rib chiqamiz.

Sport menejmenti murakkab biznesdir. Maqsadlar ko'p va ishtirokchilarning motivlari juda ko'p. Spor menejmenti – bu kompaniya yoki sport tashkilotini boshqarishga imkon beradigan tadbirlar to'plami. Bularga moliyaviy boshqaruv, xodimlar, jihozlar va sport inshootlari kiradi. Sport menejmentining asosiy maqsadi sportchilar va tomoshabinlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini ta'minlash bilan birga sport faoliyatining barqarorligini ta'minlashdir.

Sport menejmentining maqsadlari, tashkiliy nuqtai nazardan, juda ko'p va xilma-xildir. Ular moliyaviy, balki marketing yoki aloqa bo'lishi mumkin. Bu, shuningdek, texnik, sport yoki sanitariya talablarini qondirish masalasi bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, sport menejmentining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Chipta sotish, homiylik orqali daromadni oshirish;

- muxlislar tajribasini yaxshilash;

- futbolchilar, murabbiylar va xodimlarni rivojlantirish;

- Samarali marketing va reklama strategiyasini yaratish;

- barqaror byudjetni ishlab chiqish;

- strategic rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- muvaffaqiyatni baholash uchun ishlash ko'rsatkichlarini monitoring qilish;

- Brend tan olinishi va sportning ta'sirini yaxshilash;

- jamoatchilik ishtirokini va xabardorligini oshirish;

- barcha ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlash uchun xavflarni boshqarish.

Sport menejmenti mutaxassislari oldida bir qancha muammolar mavjud. Birinchidan, ular sportchilar va jamoaning yaxshi ishlashini ta'minlashi kerak. Keyin ular jamoa va tashkilotning moliyasini boshqarishlari zarur. Ular jamoatchilik bilan aloqalar va ommaviy axborot vositalarini ham boshqarishi lozim.

Bunday muammolarga misollar:

- samarali byudjetlarni ishlab chiqish va saqlash;

- futbolchilarni yollash, ijaraga olish va saqlab qolish;

- muxlislar so'rovlariga javob berish; o'yinchi salomatligi va xavfsizligini boshqarish;

- sportning biznes tomonini boshqarish;

- qonunlar va me'yoriy hujjatlarga rioya etilishini ta'minlash;

- OAV e'tiborini boshqarish;

- homiylik shartnomalarini muzokaralar olib borish va amalga oshirish;

- uzoq muddatli tashkilot muvaffaqitini yaratish va qo'llab – quvvatlash;

Sport menejmenti turli xil tajriba va mas'uliyat sohalarini birlashtirgan intizomdir. Umuman olganda, sport menejmenti sportning tashkiliy, moliyaviy, marketing va huquqiy jihatlarini qamrab oladi. Biroq, sport tashkilotining tabiati va hajmiga qarab, menejerlar ko'proq yoki kamroq mas'uliyatga ega bo'lishi mumkin. Sport menejmentining maqsadi tegishli tuzilmani yaratish va tashkilotning har bir a'zosining roli va mas'uliyatini belgilash orqali tashkilotning uzluksiz ishlashini ta'minlashdir,. Bu, shuningdek, tashkilot ichidagi turli xizmatlarni (ma'muriy, logistika, texnik) boshqarish haqida. Moliyaviy jihatdan, sport menejmenti qat'iy moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish orqali tashkilotning moliyaviy hayotiyligini ta'minlashga qaratilgan. Bunga moliyalashtirish (homiylar, grantlar) qidirish, byudjetni boshqarish va investitsiyalarni rejalashtirish kiradi.

Sport menejmenti – bu klub yoki sport federatsiyasini boshqarishga imkon beradigan tadbirlar majmui. Bu faoliyatga moliya, xodimlar, jihozlar va sport inshootlarini boshqarish kiradi. Aksariyat hollarda sport klublari va federatsiyalari ierarxik tuzilmada tashkil etilgan. Ierarxiyaning yuqori qismida tashkilotning siyosiy qarorlari va strategic rejalarini qabul qilish uchun mas'ul bo'lgan Direktorlar kengashi joylashgan. Direktorlar kengashi ostida murabbiylar, murabbiylar va ma'murlardan iborat xodimlar mavjud. Bu xodimlar klub yoki federatsiyaning kundalik faoliyatini nazorat qiladi. So'ngra, murabbiylar rahbarligida o'yinchilar va a'zolar sport bilan shug'ullanadi va uning o'sishi hamda muvaffaqiyatiga yordam beradi. Bundan ko'rinib

turibdiki sport sohasida menejment alohida ahamiyatga ega ya'ni boshqaruv yaxshi bo'lsa sport sohasidagi yutuq va yangiliklar ulkan bo'ladi shu jumladan sportchilarni moddiy rag'batlantirish yuqori darajada bo'ladi. Sport sohasiga ya'ni sportni barcha jabhasida yirik moddiy ba'zaga ega bo'lgan homiylarni jalb qilsak qolaversa reklama orqali ham moddiy ba'zamizni kattalashtirsak o'z o'rnida sportnichilarimizning yutuqlari bardavom bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Jismoniy tarbiya va sportda menejment hamda marketing". O'quv uslubiy - qo'llanma Raximqulov K.D - Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy madaniyat va uni oqitish metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent, Yadgarov A.A - Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy madaniyat va uni oqitish metodikasi kafedrasi dotsenti.

2. "Menejment va marketing asoslari". O'quv – uslubiy qo'llanma. Sh.A.Tursunov, Sh.B.Rashidova.

.3. Toshkent moliya instituti. "Menejment mutaxassislikka kirish" O'quv qo'llanma. D.Sobirjonova, U.Boymatova.

4. Z.T.G'ulomov, R.X.Nabiullin, G.Z.Kamilova, Darslik , Jismoniy tarbiya va sport menejmenti.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISH — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING GAROVI

Dilfuza Rasulova Rustamovna

Adjunct Professor, Webster University in Tashkent

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonning yangilanayotgan ta'lim tizimi va bu tizimning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi rolini tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekistonning umumiy taraqqiyoti va global raqobatbardoshlikka erishishdagi ahamiyati qay darajada muhim ekanligi yoritiladi. Maqolada ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichlari, shu jumladan ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, shuningdek, ta'lim mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirish kabi jarayonlar tahlil qilinadi. Jumladan, maqolada O'zbekistonning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion yondashuvlar, xususan raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi, ta'limning inkluzivligini oshirish va xalqaro hamkorlik orqali ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar muhokama qilinadi.

Bu islohotlar natijasida mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan strategiyalar va dasturlar tasvirlanadi. Maqola, O'zbekistonning ta'lim tizimini takomillashtirish orqali erishilgan yutuqlar va kelajakdagi rejalarning tavsifi bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: *Ta'lim sifati, O'zbekiston, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ta'lim, tizim, isloh qilish, raqamli texnologiyalar, inkluziv ta'lim, xalqaro hamkorlik, yuqori malakali kadrlar, innovatsion yondashuvlar, ta'lim mazmuni.*

Kirish

Shunday gap bor – taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatlar inson aqlu zakovatisiz o'z o'rniga ega bo'lishi amri mahol. Taraqqiy etgan davlatlarning rivojlanish yo'liga e'tibor bersak, ularning deyarli barchasi fan – ta'lim rivoji bilan shu darajaga yetgan.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish yo'lida qadamlar tashladi hamda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun yuqori sifatli

ta'limning ahamiyati beqiyosdir. Respublikamizdagi ta'lim siyosatida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarning asosiy qismini, xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, Oliy ta'limdagi bakalavriat va magistratura bosqichidagi tizimli islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, erkin fikrlaydigan yuksak saviyali personallarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi darajaga chiqish, oliy ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida prezidentimizning 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"[1] sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Davlat-xususiy sherikchiligi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2030 yilgacha 50 foizga etishi belgilandi[2]. Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga etkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamini yanada kengaytirdi[3].

"Ta'lim siyosatidagi asosiy reformalardan biri oliy ta'lim va xalq ta'limi o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish maqsadida 200 dan ortiq oliy o'quv yurtlari maktablarga biriktirildi. Shuningdek, 190 ta kasb-hunar ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo'ldi"[4].

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ustivor vazifalar, dolzarbligi hamda ahamiyati bilan boshqa sohalardagi o'zgarishlardan aslo qolishmaydi. Chunki, ayni tizimdagi yangilanishlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish zaruratdir.

Mamlakatimiz Prezidenti, rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, etakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, yurtimizda ilm-

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son - https://lex.uz/docs/-4545884
[2] 2030-yilgacha bitiruvchilarning 50 foizi oliy ta'limga qabul qilinadi - https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/09/oliy-talim/
[3] O'zbekistonda oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi - https://m.kun.uz/news/2020/12/29/ozbekistonda-oliy-talimga
[4] Ta'lim tizimi va yangicha yondashuvlar - https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi

fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlantirishga qaratganligi bejiz emas[1]. "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida ta'lim sifatini oshirish, mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotining garovi sifatida qaralmoqda. Bu islohotlar mamlakatni global miqyosda raqobatbardosh qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada, O'zbekiston ta'lim tizimining hozirgi holati va uni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va ta'lim mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorlik orqali ta'lim sifatini yaxshilash kabi strategiyalar muhokama qilinadi.

Tadqiqot Metodologiyasi

Ushbu maqolada O'zbekistonning ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlari va bu islohotlarning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Tadqiqot, ta'lim sifatini oshirish orqali erishilgan yutuqlar va kelajak rejalari tahliliga asoslanadi.

Tadqiqot quyidagi metodlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi:

1. Adabiyotlar tahlili:

- O'zbekiston va boshqa mamlakatlarning ta'lim tizimlarini isloh qilish bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlil qilinadi. Bu orqali, islohotlarning eng yaxshi amaliyotlari va ularning natijalari o'rganiladi.

- Hukumat hujjatlari, ta'lim siyosati bo'yicha hisobotlar, ilmiy maqolalar va boshqa manbalardan foydalaniladi.

2. Statistik tahlil:

- O'zbekistonning milliy statistika ma'lumotlaridan foydalanib, ta'lim tizimining sifati va taraqqiyoti bo'yicha raqamlar tahlil qilinadi.

-Ta'lim sifatini o'lchashda foydalanilgan ko'rsatkichlar (masalan, o'qituvchilarning malakasi, o'quvchilarning sinov natijalari, bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasi) tahlil qilinadi.

3. So'rovnomalar va intervyular:

- Ta'lim muassasalari rahbarlari, o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan so'rovnomalar va yarim tuzilgan intervyular o'tkaziladi.

---

[1] Prezident ilm-fan vakillari bilan uchrashdi - https://www.gazeta.uz/oz/2016/12/31/ilm-fan/

- Bu orqali, islohotlarning ta'lim sifatiga ta'sirini baholashda real fikr va kuzatuvlarni to'plash mumkin bo'ladi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish

- Kvantitativ ma'lumotlar: Olingan statistik ma'lumotlar SPSS yoki Excel kabi dasturlar yordamida tahlil qilinadi. Bu tahlil orqali, ta'lim sifatini oshirishning aniq ko'rsatkichlari aniqlanadi.

- Kvalitativ ma'lumotlar: Intervyular va so'rovnomalar yordamida olingan ma'lumotlar mazmun tahlili orqali qayta ishlanadi. Bu tahlil, islohotlar jarayonida yuzaga kelgan muammolar va ularning yechimlari haqida chuqurroq tushuncha beradi.

Olingan ma'lumotlar asosida, O'zbekistonning ta'lim tizimini isloh qilishdagi asosiy yutuqlar va qiyinchiliklar belgilanadi hamda kelajakdagi islohotlar yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari, ta'lim sifatini oshirishning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Maqola, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va ularning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ta'lim sifatini oshirishning Yangi O'zbekistonning taraqqiyotidagi rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Natijalar

Umumiy kuzatuvlar

Tadqiqot natijalari, O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishga qodir ekanini ko'rsatdi. Ushbu islohotlar jumladan, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash[1], o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish[2] va ta'lim mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirish[3]ni o'z ichiga oladi.

Statistik ma'lumotlar asosidagi natijalar

1. O'qituvchilar malakasi: Tadqiqot davrida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun qo'shimcha dasturlar joriy etilgan bo'lib, bu o'qituvchilarning o'z fanlarini chuqurroq tushunishlariga va o'quvchilarga sifatli bilim berishlariga yordam bergan. Natijada, o'qituvchilarning o'z kasbini egallash darajasi oshgan.

---

[1] Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida - https://president.uz/oz/lists/view/420

[2] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.09.2019 yildagi 797-son - https://lex.uz/docs/-4526545

[3] Ta'lim mazmuni — taraqqiyot mezoni - https://yuz.uz/uz/news/talim-mazmuni--taraqqiyot-mezoni

2. O'quvchilar natijalari: Ta'lim sifatining yaxshilanishi bilan bir qatorda, milliy va xalqaro baholash tizimlarida[1] o'quvchilarning yutuqlari sezilarli darajada oshdi. Bu o'zgarishlar, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

3. Ta'lim muassasasi infrastrukturasi: Ko'plab ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlash va ta'lim muhitini yaxshilash[2] bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Bu esa, o'quvchilarning ta'lim olish sharoitlarini yaxshilashga yordam bergan.

Kvalitativ ma'lumotlar asosidagi kuzatuvlar

1. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari: So'rov va intervyular natijalariga ko'ra, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot sifati yaxshilangan. O'qituvchilarning pedagogik uslublarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar o'quvchilarning darslarga qiziqishini oshirgan.

2. Inkluziv ta'lim: Ta'lim tizimida inkluziv ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan, bu esa turli ehtiyojlarga ega o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Xulosa va Takliflar

Tadqiqot natijalari, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan oliy ta'lim islohotlarining mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ijobiy ta'siri[3] borligini ko'rsatmoqda. Islohotlar doirasida oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi, o'qituvchilar va professorlar tarkibining malakasining oshirilishi, shuningdek, ta'lim mazmunining zamonaviy talablarga javob beradigan darajada yangilanishi kabi o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu yondashuvlar mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga va kelajak avlodlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Takliflar

1. Oliy ta'limni baholash va akkreditatsiya tizimini takomillashtirish:

- Oliy ta'lim dasturlarini baholash va akkreditatsiya qilish tizimini yanada takomillashtirish. Bu tizim oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini doimiy nazorat

---

[1] Xalqaro baholash tadqiqotlari — ta'lim sifatida muhim qadam - https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-baholash-tadqiqotlari--talim-sifatida-muhim-qadam

[2] TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA - https://lex.uz/acts/-5085887

[3] Oliy ta'lim islohotlari: muammolar, o'zgarish va yutuqlar - https://parliament.gov.uz/articles/1562#

qilish imkonini beradi va ta'lim dasturlarining zamonaviy talablarga mosligini ta'minlaydi.

2. Professor-o'qituvchilar tarkibini rivojlantirish:

- Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar tarkibining malakasini oshirishga qaratilgan dasturlarni kuchaytirish. Xalqaro tajriba almashinuvi, malaka oshirish kurslari va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish kabi tadbirlar bu jarayonni yanada samarali qilishi mumkin.

3. Raqamli ta'lim resurslarini kengaytirish:

- Oliy ta'limda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishni kengaytirish. Bu orqali ta'lim muassasalari zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi va talabalar uchun ta'lim jarayonini yanada qulay va samarali qiladi.

4. Xalqaro hamkorlik va tarmoqlar kengaytirish:

- Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarini jahon ta'lim tarmoqlariga integratsiya qilish. Bu, oliy ta'lim sifatini yaxshilashga va global ilmiy hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

5. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish:

- Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish va moliyalashtirishni oshirish. Bu yondashuv yangi bilimlar yaratilishiga va ilmiy salohiyatning oshirilishiga xizmat qiladi, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'shadi.

Ushbu takliflar, O'zbekistonning oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, Yangi O'zbekistonning kelajakdagi rivojlanishini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son - https://lex.uz/docs/-4545884

2. 2030-yilgacha bitiruvchilarning 50 foizi oliy ta'limga qabul qilinadi - https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/09/oliy-talim/

3. O'zbekistonda oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi - https://m.kun.uz/news/2020/12/29/ozbekistonda-oliy-talimga

4. Ta'lim tizimi va yangicha yondashuvlar - https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi

5. Prezident ilm-fan vakillari bilan uchrashdi - https://www.gazeta.uz/oz/2016/12/31/ilm-fan/

6. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida - https://president.uz/oz/lists/view/420

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.09.2019 yildagi 797-son - https://lex.uz/docs/-4526545

8. Ta'lim mazmuni — taraqqiyot mezoni - https://yuz.uz/uz/news/talim-mazmuni--taraqqiyot-mezoni

9. Xalqaro baholash tadqiqotlari — ta'lim sifatida muhim qadam - https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-baholash-tadqiqotlari--talim-sifatida-muhim-qadam

10. TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA - https://lex.uz/acts/-5085887

11. Oliy ta'lim islohotlari: muammolar, o'zgarish va yutuqlar - https://parliament.gov.uz/articles/1562#

METAPHORICAL FEATURES OF ENGLISH PHRASAL VERBS

Abdullaeva Nozima Abdusalim qizi
Master student of FSU
n.abduhalimova2455@gmail.com

ABSTRACT

Phrasal verbs are becoming enormously popular and their polysemous and dissimilar meanings continuously emerging from the verb particle combinations are among the main focus of linguists. Phrasal verbs which contain both literal and metaphorical meanings cause difficulties in using appropriate contexts mainly for ESL or EFL students who are not aware of their root meanings. In this thesis, metaphorical meanings of phrasal verbs are defined with simple and exemplified explanations.

Language features can be different and accepted differently. Some features of world languages are universal or general and they obey similar rules in language usage, so while some features are individual and rarely used or do not exist at all in other languages due to their general and universal properties. General and universal properties are the rules of the languages that provide, grammatical, semantic, and phonetic processes of functioning of the whole system of linguistics. [1].

To guess or remember phrasal verbs is often a challenging task. It is due to the reason that the meanings seem to have no relation with the combination of words that consist of. Factually, a lot of phrasal verbs carry metaphorical meaning that is also known as idiomatic or figurative. It becomes easier to understand and use if you know the connection between the word components and the metaphor they deliver. Usually, the phrasal verbs which have both literal and metaphorical meanings are used in specific situations that help to identify the meaning they carry. For example, the phrasal verb to *dig up* refers mostly to physical action when it is used with literal meaning, *e.g. He would dig up the plant himself.*

Phrasal verbs with metaphorical meanings also illustrate a similar action in some way to the literal one *e.g. Managers have the responsibility of spending time digging up market information.*

Apart from the verbs used with metaphorical meaning, the second component of phrasal verb combination – particles also contain metaphor. The connection between the metaphorical and literal meanings of phrasal verbs is clear.

In the following table we provide the difference between the particles that deliver literal and metaphorical meanings:

Literal meaning	Metaphorical meaning
Particle	"Up"
Describing movement toward a higher position	Increasing in size, numbers, or strength *e.g. Prices went up.*
Particle	"Down"
Describing movement toward lower position	Decreasing, in size, number, or strength *e.g. The children quietened down.*
Particle	"Ahead"
Describing a position in front of you	Describing a point in the future *e.g. Many problems lie ahead of us*

Currently, it has become generally accepted that metaphor helps to understand the thinking process and the creation of a national-specific vision of the world, a universal image. [3].

Metaphor's role as a universal phenomenon and its image in any figurative meaning of the word is due to the frequent usage in different genres or discourse types that made researchers go deep into this field.

The metaphoric features of particles are displayed to uncover a format in how some particular particles fit particular expressions. The directional particle "up", for example, has a semantically broadened sense starting from the meaning of a "higher position or level" [5] to the psychological state or condition of a person. The dynamic quality of "up" like *shut up or give up* is also on the list. In anyways, most of the figurative meanings that are used with the help of the particle "up" have something in common that emerges from the sense "up" like something moving up or *"going upward from the ground or surface"* [6] or *"getting into a better or more advanced state"* [7].

Even though the meaning of particles varies in the combinations they used, the metaphoric patterns emerging from them should somehow help make phrasal verbs comprehensive to the ones who are learning English as a 2nd language. Particles up, off, and out, for example, metaphorically intimate the concepts of action, completion, and realization.

REFERENCES

1. Metaphor an Language studies, Language studies L5 S

2. The Metaphoric in Recent Cognitive Approaches to English Phrasal Verbs

3. Аспекты семантических исследований Арутюнова, 1980, p.6

4. The phrasal verb in English, Dwight Bolinger, Cambridge

5. Hanks P. Metaphoricity in Gradable // Corpus-Based Approaches to Metaphor and Metonymy. Berlin: N.Y.P., 2006. P. 17-35.

6. Merriam-Webster Dictionaries

7. Littlemore J., Low G. Figurative thinking and foreign language learning. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2006. 239 p.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jumabayev Abdulxamid To'xtanazarovich
Namangan viloyati pedagog kadrlarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.
Namangan shahar, O'zbekiston
E-mail: abdulxamid64j@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 4K ko'nikmalari, 4K ko'nikmalarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, bugungi ta'lim tizimida 4K ko'nikmalarini maktab o'quvchilarida rivojlantirishning asosiy ahamiyati, Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi, umumta'lim maktablarida ushbu ko'nikmalarni o'quv dasturlariga samarali kiritish usullari, umumiy ta'lim maktablarida o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini rivojlantirish strategiyalari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *4K ko'nikmalari, kritik fikrlash, kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativ fikrlash, kompetensiy, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloq, hamkorlik, axborot savodxonligi, innovatsiya, loyihaga asoslangan ta'lim, muammolarni hal qilish, o'yin texnologiyasi, texnologiya, asosiy ko'nikmalar.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ 4К ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФОРМАТИКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Джумабаев Абдулхамид Тохтаназарович
Старший преподаватель кафедры «Методология точных и естественных наук» Наманганского областного национального центра подготовки педагогических кадров по новым методологиям. город Наманган, Узбекистан
Электронная почта: abdulkhamid64j@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются навыки 4К, роль навыков 4К в развитии общества, основное значение развития навыков 4К у школьников в современной системе образования, методика развития навыков 4К при преподавании информатики в общеобразовательных школах, в общие идеи о способах эффективного включения этих навыков в учебную программу в специальных школах и стратегии развития навыков работы с 4К у учащихся в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: навыки 4К, критическое мышление, коммуникация, коллаборация, общение, сотрудничество, творческое мышление, компетентность, критическое мышление, креативность, общение, сотрудничество, информационная грамотность, инновации, проектное обучение, решение проблем, базовые навыки.

METHODOLOGY OF DEVELOPING 4K SKILLS IN TEACHING COMPUTER SCIENCE IN SECONDARY SCHOOLS

Jumabayev Abdulkhamid Tokhtanazarovich
Senior teacher of the "Methodology of Exact and Natural Sciences" department of the Namangan Region National Center for Training Pedagogical Personnel in New Methodologies. Namangan city, Uzbekistan.
E-mail: abdulkhamid64j@gmail.com

ABSTRACT
In this article, 4K skills, the role of 4K skills in the development of society, the main importance of developing 4K skills in schoolchildren in today's education system, the methodology of developing 4K skills in teaching computer science in general education schools, in general ideas about ways to effectively incorporate these skills into the curriculum in special education schools, and strategies for developing students' 4K skills in general education schools.

Keywords: 4K skills, critical thinking, communication, collaboration, creative thinking, competence, critical thinking, creativity, communication, collaboration, information literacy, innovation, project-based learning, problem solving, game technology , technology, basic skills.

